



INTRODUCTION OF NOTARIAL ACTIVITY AND ITS FUNCTIONS IN THE JUDICIAL AND LEGAL SYSTEM OF THE TURKESTAN GOVERNORATE-GENERAL

Sherzod Bozorovich Kholikulov

University of Economics and Pedagogy, Samarkand Campus

E-mail: sh.kholikulov@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: notary, judicial authorities, "Regulations on notary units", justices of the peace, city courts, district courts, regional court, justice of the peace, documents related to notary offices, registry, notary skills, notary archive.

Abstract: The article highlights the judicial and legal reforms carried out by the Russian Empire in the Turkestan region, as well as the establishment of notary offices in the region and their work. In the second half of the 19th-early 20th centuries, a notary's office was established in the Turkestan General Government and its regulatory framework was introduced.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI SUD-HUQUQ TIZIMIDA NOTARIAL IDORALAR FAOLIYATINING JORIY ETILISHI VA UNING VAZIFALARI

Sherzod Bozorovich Xolikulov

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

sh.kholikulov@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Notarius, sud organlari, "Notarial qismlar haqidagi Nizom", mirovoy sudyalari, shahar sudlari, okrug sudlari, viloyat sudi, mirovoy sudya, notarial idoralarga tegishli hujjatlar, reestr, notariuslik ko'nikmalari, notarial arxiv.

Annotatsiya: Maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasida o'tkazilgan sud-huquq sohasidagi islohotlar, shuningdek, o'lkada notarial idoralar faoliyatini yo'lga qo'yilishi va bu borada amalga oshirgan ishlar yoritib berilgan. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligida notarial idoralar faoliyatining yo'lga qo'yilishi va

uning normativ-huquqiy asoslari keltirib o'tilgan.

ВНЕДРЕНИЕ НОТАРИАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЕЕ ФУНКЦИИ В СУДЕБНО-ПРАВОВОЙ СИСТЕМЕ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВА

Шерзод Бозорович Холикулов

Университет экономики и педагогики, Самаркандский кампус

E-mail: sh.kholikulov@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: нотариус, судебные органы, «Положение о нотариальных частях», мировые судьи, городские суды, окружные суды, областной суд, мировой судья, документы, относящиеся к нотариальным конторам, реестр, нотариальные навыки, нотариальный архив.	Аннотация: В статье освещаются реформы судебно-правовой сферы, проведенные Российской империей в Туркестанском крае, а также налаживание деятельности нотариальных контор в крае и проводимая ими работа. Во второй половине XIX-начале XX вв. в Туркестанском генерал-губернаторстве была создана нотариальная контора и приведены ее нормативно-правовые основы.
---	---

Kirish. Turkiston hududlarini istilosidan so'ng Rossiya jahonning yirik imperiyalaridan biriga aylandi. Xususan, Rossiya imperiyasi tasarrufiga kiritilgan birgina Turkiston general-gubernatorligi hududi kengligi jihatidan Fransiya, Germaniya va Avstro-Vengriya imperiyalari maydoniga tenglashdi. XX asr boshiga kelib, Turkiston o'lkasini boshqarishning general-gubernatorlik tizimi to'la qaror topdi. Shunga muvofiq, imperator tomonidan tayinlanadigan general-gubernator o'lkani bosh ma'muri sanalgan, bosh ma'muriyati huzurida kengash alohida topshiriqlarni bajaruvchi amaldorlar, tarjimon va devonxona faoliyat olib borgan. Viloyat boshqaruvi vakolatiga ega bo'lgan harbiy gubernatorlar general-gubernatorga so'zsiz bo'ysunganlar. Shuningdek, uездlar boshqaruvini amalga oshiruvchi uезд boshliqlari o'z yordamchisi va devonxonasiga ham ega bo'lgan. Qishloq joylardagi asosiy ma'muriy-hududiy birlik volost bo'lib, saylab qo'yiladigan volost boshqaruvchisi tomonidan boshqarilgan[1].

Adabiyotlar sharhi. XIX asr ikkinchi yarmida sudlov tizimida yuz bergan o'zgarishlar, xususan, notarial idoralar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, tarix fanida alohida ilmiy izlanishni talab qiladigan mavzulardan sanaladi. Ushbu mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari, mavjud tarixiy manba va adabiyotlarni 3 turkumga bo'lgan holda o'rganish mumkin:

Birinchi guruhga Turkistonda sud organlari va notariuslar faoliyati masalasi doirasida tadqiqot olib borgan mualliflari sirasiga xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilaridan A.Donelli[2], R.D.Kryus[3], D.Brouer[4], J.M. Tresher[5], P.Sartorilar[6] ni keltirish mumkin.

Ikkinchi guruhga XIX asr oxiri – XX asr boshiga doir MDH tadqiqotchilari, davlat xizmatchilarining esdalik va asarlarini kiritish mumkin. Jumladan, G.Arendarenko[7], M.Fedorovskiy[8], graf Palen[9], N.I.Kraft[10], N.Ostroumov[11], N.Fioletov[12] va N.Likoshin[13] kabilarning shu davrda chop etgan tarixiy asarlari va maqolalarida Rossiya imperiyasining Turkistonda amalga oshirgan sud tizimidagi siyosati ijobiy baholanib, qozilik, xalq sudlarining mohiyati va mustamlaka ma'muriyati tomonidan an'anaviy sud tizimiga kiritilgan o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot berilgan, notarial idoralar faoliyati "Notarial idoralar faoliyati haqida"gi Nizom asosida bir yoqlama yoritib berilgan[14].

Uchinchi guruh mansub mualliflar asarlarida Markaziy Osiyo mintaqasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy oqibatlarini qatorida o'lkaniing sudlov tizimi borasidagi ma'lumotlarga ham alohida o'rin ajratilgan. Jumladan, F.Bakirov[15], F.Isxakov[16], N.Abdurahimova[17], Sh.G'offorov[18], T.Sultonova[19], B.Ergashev[20] va boshqa mualliflar tomonidan Turkistonda sud idoralari faoliyatining yo'lga qo'yilishi va 1917 yilga qadar bosqichma-bosqich isloh qilinishi tarixi tadqiq etilgan.

Asosiy qism: 1886-yilga qadar Turkiston to'rtta "Boshqaruv to'g'risidagi muvaqqat Nizom" asosida boshqarib turildi. Ya'ni, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari 1867-yildagi Muvaqqat nizom, Zarafshon okrugi Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman tomonidan 1868-yilda ishlab chiqilgan Muvaqqat Nizom, Amudaryo bo'limi 1874-yildagi Vaqtinchalik qoidalar va Farg'ona viloyati 1873-yilda ishlab chiqilgan, ammo tasdiqlanmagan Nizom loyihasi asosida boshqarib borildi[21]. 1886-yilning 12-iyulida imperator Aleksandr III tomonidan harbiy vazirlik qoshida tashkil etilgan Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqish uchun tuzilgan maxsus komissiya tomonidan taqdim qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga imzo chekildi[22]. Biroq, Turkiston ishlari bo'yicha asosiy qonun tasdiqlanishi bilan unga nisbatan norozilik fikrlari kelib chiqa boshladi. Mazkur qonun Turkistonda fuqarolik boshqaruvi asoslarini joriy qilishni nazarda tutar va unga nisbatan bildirilgan salbiy fikrlar eng avvalo ushbu qonunni hayotga tatbiq qiluvchi amaldorlarga tegishli edi. Jumladan 1901-1906-yillardan general-gubernatorlik boshqaruvchisi bo'lgan G.P.Fedorov o'z xotiralarida "ushbu Nizomning amaliyotga joriy qilinishi bilanoq, uning hech nimaga arzimastligi ma'lum bo'ldi" deya qayd etgan edi[23]. 1886-yilgi Nizom uzoq vaqt davomida ma'lum reglamentga solinmagan Turkiston general-gubernatori va turli vazirliklar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni nazarda tutardi. Endilikda, Turkiston general-gubernatori sud, moliya, o'quv, nazorat va pochta-telegraf vazirliklarini o'z nazorati ostidan chiqarardi. Qolgan vazirlik tuzilmalari "General-gubernatorlar uchun umumiy tartib qoidalar"ning 241-242-moddalariga muvofiq general-gubernatorlik devonxonasi orqali Sankt-Peterburgdagi markaziy idoralar orqali bog'langan edi. 1886-yilgi Nizom qabul qilingandan so'ng tashkil etilgan

muassasalar boshliqlariga esa general-gubernator mahkamasiga buysunmagan tartibda to'g'ridan-to'g'ri vazirlik muassasalariga murojaat qilish va ulardan topshiriq olishga ruxsat berilgan[24]. Ushbu holatlar Turkiston general-gubernatori hukumati obrusiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, negaki, u o'lkaning yagona hokimiyat vakili maqomini yo'qotganligini bildirardi. Turkiston general-gubernatorligi bilan bir qatorda va deyarli undan mustaqil holatda, tegishli vazirlik tartib qoidalari asosida ish olib boruvchi mahalliy hokimiyat organlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi tabiiyki, general-gubernatorlik faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi holatlardan biriga aylana boshladi. Bunga misol qilib, Turkistonga aholini ko'chirish ishining tashkillashtirilishini ko'rsatish mumkin. Shu maqsad yo'lida Turkistonda tashkil etilgan maxsus guruhlar ko'chib kelayotgan aholiga yaxshi yer uchastkalarini ajratib berishga harakat qilsalar, tub yerli aholining norozi bo'lishidan tashvishlangan Turkiston general-gubernatorlari bunga qat'iy qarshilik ko'rsatardilar.

O'lkadagi chor ma'murlarining fikricha, mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olmasdan turib yerlarni tortib olib bo'lmasdi, bil'aks, kelajakda ko'chib keluvchilar uchun beriladigan yer maydonlari holatini yaxshilashga birinchi galdagi vazifa deb qarash kerak edi. O'z tomonidan ko'chirish ishlari mahkamasi Turkiston o'lkasida mahalliy aholiga kerak bo'lmagan, lekin o'troq xo'jalik uchun mos yerlar yetarlicha edi. Uzoq davom etgan ziddiyat natijasida harbiy vazir A.F.Rediger 1908-yilda vazirlar kengashiga murojaat qilib, Turkiston o'lkasini ko'chirish siyosati bilan bog'liq ziddiyat bartaraf etilmagunga qadar vaqtincha yopish taklifi bilan chiqadi. Vazirlar kengashi shunga muvofiq zaruriy chora-tadbirlarni qabul qiladi. Barcha gubernatorlarga va ko'chish istagida bo'lganlar uchun tuzilgan ma'lumotnomalarda "Turkistonda bo'sh yer yo'q" degan jumla ilova qilindi[25]. 1886-yilgi Nizomning yana bir kamchiligi general Vrevskiy va Turkiston general gubernatori A.V.Samsonovlar tomonidan qayd etilgan boshqaruvning barcha masalalari bo'yicha maslahat kengashi faoliyatida yer mulklarni boshqarish va soliqlarni tartibga solishdan boshqa barcha masalalarni ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan hal qilinishi edi. Kengashning bunday huquqi ko'p hollarda Turkiston general-gubernatorini o'z nuqtai-nazarini uqtirish uchun yuqori davlat muassasalariga murojaat qilishlariga sabab bo'lardi[26]. Shu tariqa, 1886-yilda joriy qilingan Nizom asosida shakllangan yangi fuqarolik hokimiyati Turkiston o'lkasini bosib olgan dastlabki kezlarda joriy qilingan harbiy xalq boshqaruvi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish barobarida Turkistondagi tub yerli aholining dunyoqarashiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Turkiston general gubernatorligi hududida Nizomni amalga joriy qilgan general Vrevskiy "Mahalliy aholi qat'iy va yagona hokimiyatnigina hurmat qilishga o'rgangan, u alohida guruhlariga bo'lingan va ba'zan bir-biri bilan kelishib ishlay olmaydigan bo'lingan hokimiyat tamoyilini tushuna olmaydi", deya fikr bildirgan edi. Turkiston o'lkasi boshqaruvi bilan bog'liq muammolar bu yerda mahalliy tub joy aholi uchun umumimperiya va xalq sudlari faoliyatini joriy qilish bilan

ham bog‘liq edi. Agar Turkiston o‘lkasi bosib olingan dastlabki kezlarda sud-huquq tizimida yuzaga keladigan barcha bahsli holatlarni hal etish Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman zimmasida bo‘lgan bo‘lsa (bunday cheklanmagan vakolat unga imperatori Aleksandr II tomonidan berilgan), 1886-yilgi Nizomda belgilab qo‘yigan chora-tadbirlarga ko‘ra endilikda, Turkiston general-gubernatorlari yuzaga keladigan bahsli vaziyatni hal qilishga haqli emas edilar. Ko‘p hollarda bunday vaziyatlar volostlar aholisi o‘rtasida suv taqsimoti sabab yuzaga keladigan mojarolarda kuzatilgan. Negaki, daryoning yuqori o‘zanida yashovchi aholi yerlarni sug‘orish uchun suvni o‘z tomoniga burib yuborar, daryoning quyi qismida yashaydigan aholi esa suv tanqisligidan chor mamurlariga arz qilib chiqishardi[27].

Yuqorida ta’kidlanganidek, Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi, rus qo‘shinlarining Markaziy Osiyodagi faol harbiy harakatlari bilan hamohang kechdi. XIX asr o‘rtalarida Rossiya imperiyasining tashqi siyosatidagi ayrim murakkab jihatlar Markaziy Osiyo hududlarini bosqichma-bosqich bosib olishga undadi. Shu asosda istilochilik yurishlari natijasida bosib olingan hududlar dastlab viloyat sifatida imperiya tarkibiga qo‘shib olindi. Rossiya imperiyasi nazorati ostida bo‘lgan hududlarning kengayishi, tabiiyki, mahalliy aholi va chor ma’murlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga ehtiyoj tug‘dirdi. Buning sabablari, imperiya hukumatining markazdan turib tobe hududlarni nazoratda ushlab turishni yengillashtirish, viloyatlar va markaz o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turish kabi holatlar bilan bog‘liq edi. Shu sababdan, Turkiston o‘lkasida umumimperiya huquqiy tizimini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish ishlari amalga oshirildi. Ayni holat tadqiqot ob’ekti bo‘lgan notarial idoralar faoliyati bilan ham bog‘liq edi.

Shu o‘rinda Turkiston o‘lkasida asrlar davomida ham notarial idoralar faoliyati o‘ziga xos tartibda ishlab chiqilganligi va amal qilganligini ta’kidlash joiz. Jumladan, Burxoniddin Marg‘inoniyning “Muxtasar” asarida garov, ijara, kafolat kabi masalalar yechimi mufassal bayon qilingan va bu o‘rta asrlardayoq Turkiston o‘lkasida vorislik masalalarining muayyan qonun qoidalarga rioya etgan holda rasmiylashtirishni talab qilganligi ifodasi bo‘lgan. Bundan tashqari muqaddas Quroni Karim oyatlarida ham merosga egalik qilish bilan bog‘liq yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatilgan. Asrlar davomida Turkiston hududida mavjud bo‘lgan davlatlar arablar bosqinidan so‘ng joriy qilingan davlatchilik shakliga ko‘ra shariat va odat normalari bilan tartibga solinib turuvchi sud faoliyatini yo‘lga qo‘yganlar. Fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar odat normalari bilan tartibga solingan va bu normalar huquqiy va huquqiy bo‘lmagan odatlarga bo‘lingan. Huquqiy odatlar davlat tomonidan tan olinib yuridik kuchga ega bo‘lgan. Markaziy Osiyoda Rossiya imperiyasining jinoiy va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tizimining joriy etilishi viloyat boshqarmasida barchaning ishtirokida ko‘rib chiqilgan. Ko‘chmanchi aholi istiqomat qiladigan hududlardagi biy sudlari sud tizimining eng quyi pog‘onasi bo‘lgan. Turkiston general-

gubernatorligida notarial idoralar o'z faoliyatini yo'lga quygunga qadar bu vakolatli ishni uchastka mirovoy sudyalari bajargan. 1871-yilda Turkiston general-gubernatorligida "Notarial qism haqidagi qoida" kuchga kirdi. Unga ko'ra sudlarga har qanday ko'rinishdagi hujjatlarni shu jumladan diniy vasiyatnomalarni tasdiqlash, hujjatlar kitobidan ko'chirma berish yoki nusxa ko'chirish "Fuqarolik holati bo'yicha qonunlar to'plami"ning birinchi qismi 1534, 2036 va 2056-moddalarida ko'zda tutilgan holatlardan kelib chiqib, turli ko'rinishdagi hujjatlarga guvohlik berish, olingan nusxalar haqqoniyligini tasdiqlash yoki ularga norozilik bildirish, imzolar haqiqiylik guvohlik berish vakolatlari yuklatilgan.

Shuningdek, notarial hatti-harakatlarni amalga oshirish davomida sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov Nizomining tegishli moddalari, "Notarial qism haqidagi qoida"ning 154-moddasi, sud qarorlari muassasalari moddalariga tayangan holda ish olib borishi belgilangan. Notariuslar Turkiston general-gubernatori tomonidan mavjud viloyatlar qoshidagi guvohnomalar taqdim qilish boshqarmasidan notariuslik faoliyatini olib borish huquqini beruvchi hujjatga ega bo'lgan shaxslar orasidan tanlab olingan, ular qasamyod qabul qilgach, o'z lavozimlarini bajarishga kirishganlar. Mansab pog'onasida ular sakkizinchi pog'onaga mansub deb tan olingan, garchi notariuslar davlat xodimlari hisoblansada, ushbu lavozim bo'yicha nafaqaga chiqish huquqiga ega bo'lmaganlar[28]. Notariuslar o'zlari tuzadigan dalolatnomani tasdiqlash uchun viloyat gerbi tushirilgan muhrga ega bo'lganlar. Shuningdek, bu muhrda notariusning ismi sharifi va u faoliyat olib boradigan shahar nomi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Har bir notarius tomonidan imzolangan va muhrlangan hujjatning bir nusxasi mahalliy viloyat boshqarmasi sud bo'linmasida saqlangan. Sud bo'linmalari xodimlariga vaziyatdan kelib chiqib notariuslar vazifasini bajarishga ruxsat berilgan. Shu bilan birga notariuslar vazifasiga faqat rus millati vakillari tayinlanishi mumkin bo'lgan. Masalan, 1883-yilning 30-dekabrida Sirdaryo viloyat boshqarmasi Chili uezd sudyasiga xat yo'llab, mahalliy aholi tomonidan taqdim qilinadigan shikoyat arizalarini to'g'ri tartibda rasmiylashtirish, ya'ni murojaat qiluvchining ismi - sharifini keltirish va so'ngida yuqorida ko'rsatilganidek tartibda qabul qilish so'raldi. Sud shu jumladan notarial qismlar masalasidagi doimiy bahslar va shikoyatlar notarial idoralarning avvalgi tizimini yangi qoidalarga almashtirishga undadi.

Xulosa. Turkiston o'lkasida notariuslar soni yil sayin oshib borgan. 1894-yilgi holatga ko'ra, Verniy va Uralsk hududlarida ikkitadan, Ural oblastining Gurev, Qalmiq, Temir va Ilesk tumanlarida, Oqmola viloyatining Oqmola, Kukchatov va Otbosar, Semipalatinsk viloyatining Pavlodar, Qarqarali, Ust-Kamenogorsk, Zaysan, Yettisuv viloyatining Kopal, Lepsin, Prjevalsk, Pishpak, Turg'ay viloyatining Aktube, Irgiz, Kustanay va Turg'ay tumanlarining har biriga bittadan notariuslar faoliyat olib borishgan[29]. Turkiston o'lkasining sud, notarial va vasiylikni o'rnatish, shuningdek, viloyatlardagi xalq sudlari quyidagi tartibda o'z faoliyatini amalga

o'shiringanlar: Notariuslar dalolatnoma tuzish vaqtida imzo chekuvchilarning imzolari haqiqiy ekanligini tasdiqlashi, tuziladigan dalolatnoma umumiy qoidalarga mos kelmaydigan bo'lsa, unga raddiya bildirishi, ishtirokchilarni hujjat mazmuni bilan tanishtirishi lozim bo'lgan. Viloyat sud raislari notariuslarni belgilash va o'z xizmat lavozimidan bo'shatish, shuningdek, axloq normalari bo'yicha javobgarlikka tortish huquqiga ega bo'lishgan. O'z xizmat vakolatlarini suyuq qilgan notariuslar viloyat sudi qaroriga ko'ra sudga oshirilgan va sud majlislarida belgilangan tartibda ko'rib chiqilgan. Viloyat sudiga kelib tushadigan barcha sud bilan bog'liq hujjatlar notarial arxivda saqlangan.

Fydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Васильев Д.В. Бремя империи Административная политика России в Центральной Азии Вторая половина XIX в. РОССПЭН. Москва 2018.
2. Donnelly, Alton. -The Mobile Steppe Frontier.I Russian Colonial Expansion to 1917. ed. Michael Rywkin. London: Mansell, 1988.
3. Crews, Robert D. For Prophet and Tsar: Islam and Empire in Russia and Central Asia. Cambridge, Mass: Harvard University Press, 2006.
4. Brower, Daniel R. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. London; New York: Routeledge Curzon, 2003.
5. Thrasher Matthew J., "How to Make a Colony: Reform and Resistance in Russian Turkestan, 1865-1917" (2010). German and Russian Studies Honors Projects. Paper 5.
6. Sartori Paolo. Sharia and cultural change in Russian Central Asia. Boston: Brill, 2016. | Series: Handbook of oriental studies. Section eight, Uralic and Central Asian studies; Volume 24 | Includes. bibliographical references and index.
7. Арндаренко Г.А. Досуги в Туркестане 1874-1889 (о народном суде у туземцев). – СПб, 1889.; Ўша муаллиф. О народном суде среди туземцев. Зарафшанские заметки // Туркестанские ведомости, апрель-июль, 1879.
8. Федоровский М. О расширении сферы русского суда над туземными в крае. Юридические заметки // Туркестанские ведомости, 4 мая, 1886.
9. Пален К.К. Краевое управление. Отчёт по ревизии Туркестанского края. – С-Петербург, 1910.; Ўша муаллиф. Отчет по ревизии Туркестанского края. Народные суды Туркестанского края. СПб: Изд-во «Санкт-Петербург», 1910.
10. Крафт Н.И. Судебная система в Туркестанском крае и степных областях. Оренбург, 1896.; Шу муаллиф. Судебная часть в Туркестанском крае и Степных областях. – Оренбург: Типография Н.Н.Жаринова, 1898.
11. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. (Общий очерк). Изд. 3-е допол. – Ташкент, 1908.

12. Фиолетов Н. Суды казиев в среднеазиатских республиках // Советское право. – М., 1927.
13. Лыкошин Н. Кази (народные судьи). Бытовой очерк оседлого населения Туркестана / Русский Туркестан. Сборник, т. 1. Приложение к газете “Русский Туркестан”. – Ташкент: Типография “Русский Туркестан”, 1899.; Шу муаллиф. Пол жизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. – Петроград, 1916. Стр. 415.
14. Салиев А. Попытки инкорпорации традиционных судов Туркестана в систему судопроизводства Российской империи // Право и управление. XXI век. 2015. № 2 (35).
15. Бакиров Ф. Чор Туркистонида суд, шариат ва одат. – Т.: Фан, 1967.
16. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.). – Т.: Фан, 1997.
17. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда Чор мустамлака тизими. Тошкент “Академия” нашриёти. 2002.
18. Гоффоров Ш.С. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар. -Тошкент. 2006.
19. Султонова Т. Шариат қоидалари ва нотариал ҳаракатлар // *Huquq va burch*”, 2009 йил 2-сон.
20. Эргашев Б. Делопроизводственная деятельность канцелярии Туркестанского генерал-губернаторства. – Т.: Фан, 2015.
21. Положение об управлении Туркестанского края 1886 г.
22. Тишкова А.Г. Положение о нотариальной части 1866 г.: историко-правовой источник. Гуманитарные и социальные науки 2011. № 5.
23. Федоров Г. Моя служба в Туркестанском крае (1870–1906) // Исторический вестник. 1913.
24. Особые журналы Совета министров Российской империи. 1909–1917 гг. 1910 год.
25. Шушкова М. Организация управления Туркестаном в начале XX века. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Москва 2015.
26. Султонова Т. Шариат қоидалари ва нотариал ҳаракатлар // *Huquq va burch*”, 2009 йил 2-сон.
27. Токболат С.Т. Общеимперская система нотариата в Туркестанском генералгубернаторстве (на примере Сыр-Дарьинской области)// Молодой учёный, 2013 № 11.1 (58.1).
28. О‘zRMA 310- fond, 1-ro‘uxat, 48- yig‘ma jild. 10. О‘zRMA 310- fond, 1-ro‘uxat, 2073.